

Rassom palitrasi. Tasviriy san'at nima?



Bugun siz tasviriy san'atning ajoyib olamiga sayohatingizni boshlaysiz. Yil davomida siz yon-atrofning qanchalik go'zal ekanligini his etib, o'z taassurotlaringizni rasmlarda aks ettirishni o'rganasiz, taniqli rassomlarning asarlari bilan tanishib, turli xil tasviriy texnikalarni o'zlashtirasiz.

Tasviriy san'at insonga voqealarni so'zsiz so'zlab berishga yordam beradi. Chiziq, rang, shakl va kompozitsiya yordamida rassomlar tabiat, odamlar, hayvonlar, voqealar va o'z tuyg'ularini tasvirlaydilar. Har bir rasm – butun dunyodagi odamlar tushunadigan maxsus til.



“Go'zallik inson ko'nglini shod etadi”.

Alisher Navoiy



“Ilmga intilish har bir inson uchun farzdir”.

Mirzo Ulug'bek



“Inson kamolotga ilm va mehnat orqali erishadi”.

Abu Ali ibn Sino

Bu hikmatli so'zlar atrof-olamdagi go'zallikni ko'ra bilish, kuzatish orqali uni yarata olish insonning komillikka erishishida yordam berishini bizga eslatib turadi. Rassom atrof-olamga diqqat bilan nazar soladi, uning o'ziga xos jihatlarini payqaydi va o'z taassurotlarini rasmlarda muhrlaydi.

Tasviriyl san'atning bir necha **turlari** mavjud.



Grafika chiziqlar, shtrixlar va dog'lar yordamida tasvirlash san'atidir. U qalam, ko'mir, tush va flomaster bilan bajariladi.




Rangtasvir tasvirlarni bo'yoqlar yordamida yaratish san'ati bo'lib, unda rassom atrof-muhitning rangi, kayfiyati, yorug'ligi va go'zalligini bo'yoqlar orqali yetkazib beradi.



Haykaltaroshlik inson qo'li bilan loy, tosh, yog'och va metall dan hajmli shakllar yaratish san'atidir.



Amaliyl bezak san'ati maishiy buyumlarni naqsh va bezaklar bilan bezatish bo'lib, ular hayotimizni yanada go'zal va shinam qiladi.



Me'morchilik shaharlarga ko'rk bag'ishlaydigan va odamlarga uzoq yillar xizmat qiladigan binalarni loyihalash va qurish san'atidir.

Ona yurtim – O'zbekiston!



Bugun siz ona yurtimizga bag'ishlangan rasm chizasiz. Rasmingizda tog'lar, kuzgi daraxt va milliy libosdagi bolalar aks etadi. O'zbekiston tabiatining go'zalligini, uning urf-odatlarini va iliq kuz kayfiyatini ifodalashga harakat qiling.

Rasm chizish bosqichlari:

- 1. Kompozitsiyani belgilab oling.** Yengil chiziqlar bilan yer, tog', daraxtlar hamda bolalarni chizing.
- 2. Rasmni boyiting.** Kiyim va yuz detallari hamda milliy libos elementlarini qo'shing.
- 3. Fonni bo'yang.** Osmon, tog'lar va kuz manzarasiga rang bering.
- 4. Bosh qahramonlarni bo'yang.** Kiyimlar uchun mos chiroyli ranglarni tanlang.
- 5. Ishni yakunlang.** Kuzgi barglar qo'shing va detallarni qunt bilan ishlab chiqing.

Sizga kerak bo'ladi:
albom varag'i,
oddiy qalam,
o'chirg'ich,
rangli qalamlar.



Qalamni qattiq bosmang. Avval yengil chiziqlar bilan chizing, so'ngra asta-sekin shakl va detallar qo'shing. Shunda rasmingiz tartibli va ifodali chiqadi.



3



4



5

